

**ISHLAB CHIQRISH OB'EKTLARIDA SANOAT XAVFSIZLIGINI
TA'MINLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI BO'YICHA
YAYLOVLARNI MONITORING QILISH CHORA-TADBIRLARINI
ISHLAB CHIQRISH "O'ZBEKNEFTGAZ" AJ (SHO'RTAN GCC
MISOLIDA)**

Karimova Mehribon Qahramon qizi

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti

"Geologiya qidiruv va kon metalurgiyasi" fakulteti 2-bosqich magestranti

karimova.mekhribon@mail.ru, +998998123066

Annotatsiya:


Mehnat muhofazasi xodimining sexlar va havfli ob'ektlarda ishchi xodimlarni ish vaqtida korxonalar tartib qoidalariga rioya qilayotganini, Face ID va QR kod orqali xodimning ish faoliyati to'g'risidagi barcha ma'lumotlarini nazorat qilishi uchun Control planshet dasturi ishlab chiqildi. Control planshetimizda xodimlarning yo'riqnomalardan o'tganligi, ish faoliyati davomidagi jarimalar miqdori statistika ko'rinishida belgilab korxonaning umumiy holati aniqlanadi. Bu orqali ish jarayonida baxtsiz hodisalar sonini kamayishi yo'riqnomalardan o'z vaqtida o'tilishi kutilmoqda. Bu esa ish samaradorligini yanada oshirishida sabab bo'ladi.

Kalit so'zlar: xavfsizlik, Mehnatni muhofazasi, baxtsiz hodisalar, control planshet dasturi.

O'zbekiston Respublikasida xavfsiz va qulay mehnat sharoitida ishlash yuzasidan fuqarolarning huquqlari Konstitutsiyada (37-modda) mustahkamlanib qo'yilgan. Ushbu konstitutsiyaviy kafolatni amalda ro'yobga chiqarilishiga qaratilgan aniq chora tadbirlar O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksida, "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun (1993-yil 6-may) da, boshqa bir qator qonunlar va qonun osti normativ hujjatlarida belgilangan. O'zbekistonda Mehnat muhofazasi uchun katta moliyaviy mablag'lar ajratiladi va o'zlashtiriladi. Sog'lom va xavfsiz mehnat sharoitida mehnat qilish huquqi O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining eng asosiy mehnat huquqlaridan bo'lib hisoblanadi. Mehnat muhofazasiga oid talablar va standartlar Mehnat kodeksi, "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun talablari asosida ishlab chiqariladigan korxonalar va tashkilotlarning ichki




mehnat tartibi qoidalari, jamoa shartnomalari, tarmoq yoki mintaqaviy jamoa kelishuvlari, korxonalarining boshqa ichki normativ huquqiy hujjatlarida, muayyan soha, kasb, ish joylariga oid bo‘lgan Mehnat muhofazasi standartlarida belgilab qo‘yiladi. Mulkchilik shakli va xo‘jalik yuritish usulidan qat’iy nazar barcha korxonalar, muassasa, tashkilotlar o‘z xodimlari uchun sog‘lom va xavfsiz mehnat sharoitini yaratishi, xavfsizlik texnikasi choralarini ko‘rishi, mehnatni muhofaza qilish xizmatlarini tashkil etishi, boshqa tashkiliy texnik tadbirlarni amalga oshirishi shart. O‘zbekistonda xizmat vazifasini bajarish chog‘ida sodir bo‘layotgan o‘lim holatlari miqdori oshib bormoqda. 2022-yilning 11 oyi davomida O‘zbekistonda ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar oqibatida sodir bo‘lgan o‘lim holatlari soni 229 tani tashkil qiladi. Bu haqda Mehnat munosabatlari vazirligi Davlat mehnat inspeksiyasi xabar berdi. O‘lim holatlari yuzasidan jinoiy javobgarlikka tortilgan mansabdor shaxslar soni 194 nafar, ma‘muriy javobgarlikka tortilgan mansabdor shaxslar soni 121 nafarga teng. 2018 yildan boshlab taqdim etilgan ma‘lumotlarga ko‘ra, o‘lim holatlari soni oshib borayotgani kuzatilmoqda. Misol uchun, 2018 yilda bunday holatlar soni 182 tani, 2019 yilda 199 tani, 2020 yilda 200 tani, 2021 yilda 238 tani tashkil qilgan.



1-rasm. 2022 yil ko‘rsatkichlari 11 oylilik ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi. Qizil-o‘lim holatlari, ko‘k- jinoiy javobgarlikka tortilgan mansabdor shaxslar, yashil-ma‘muriy javobgarlikka tortilgan mansabdor shaxslar.

Yuqorida keltirilgan statistik ma'lumotlardan shuni bilishimiz mumkinki, ishlab chiqarish korxonalarida yuzaga kelayotgan baxtsiz hodisalar soni ortib bormoqda o'z ilmiy ishimda shu holatga ko'proq etibor qaratishim kerak deb hisobladim hamda O'zbekistonda hali tajriba qilib ko'rilmagan Control planshet dasturini ishga turishga qaror qildim. Dasturning vazifasi, mehnat muhofazasi inspektorlar ishchi xodimlarning ish sharoiti, ish vaqtidagi himoya vositalari hamda yo'riqnomalar tartibligi baxtsiz hodisalar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'zida jamlab xodimlar nazorati kuchaytirishga sabab bo'ladi. Ish jarayonidagi qoidalar buzilsa tegishli tartibda jarima usullari qo'llaniladi.



2-rasm. Control planshet dasturining menu oynasi.

Xodimlar ro'yxati; Jarima turlari; Bo'limlar; Baxtsiz hodisalar; Statistika; Xodim qo'shish.

Mazkur dasturning maqsadi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan baxtsiz hodisalarni oldini olish hamda xodimlarning sog'lom turmush sharoitini yaratib berish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Smaleva P.G. Tashkilotning barqaror rivojlanishga o'tishi sharoitida integratsiyalashgan boshqaruv tizimlarining afzalliklari // Yosh olim. - 2009. - 7-son. - S. 30-33. – URL <https://moluch.ru/archive/7/522/> (kirish sanasi: 25.09.2019).
2. OHSAS 18001:2007 - "Mehnat salomatligi va xavfsizligini boshqarish tizimi" (OHSMS).
3. O'zbekiston Respublikasining "Xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarining sanoat xavfsizligi to'g'risida"gi 2006 yil 28 sentyabrdagi O'RQ-57-son Qonuni.

